

RUHIY ZO‘RAVONLIKNING KO‘RINISHLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544419>

Mirzayeva Barnoxon Adxamovna

Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati
boshlig‘ining Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari,
ADPI tadqiqodchisi

Annotatsiya: *An’anaviy o‘zbek jamiyatida erkak kishining o‘zining his-tuyg‘ularini yaqqol, jamoatchilik oldida ifodalashi qo‘llab-quvvatlanmagan. Bu esa ruhiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq dilemmani hosil qiladi. Inson milliy qadriyatlar va liberal qadriyatlar tanlovi qarshisida qolmoqda. Bu esa ruhiy zo‘ravonlik masalasini yanada kengroq tushunish muammosini vujudga keltirmoqda.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, jamiyat, ruhiy zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, degradatsiya, manipulyatsiya, pedagog, streotiplar.*

Sog‘lom ruhiy munosabatlar oilada, ta’lim muassasi va mehnat jamoasida shakllanadigan juda murakkab jarayon natijasidir. Uning barkamol bir shaklda shakllanishida ommaviy axborot voistlari va ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ongga tobora global qadriyatlar kirib kelmoqda. Ushbu qadriyatlarning ayrimlar o‘ta liberal xususiyatga ega bo‘lsa, ayrimlari juda konservativ xususiyatga egadir. Shu sababli ham jamiyatda va oilada his tuyg‘ularni tan olish va hurmat qilish masalasi nafaqat hissiy tarbiya, balki qadriyatlar oriyentatsiyasi bilan bog‘liq muammo ham bo‘lib qolmoqda.

E’tiborsizlik ruhiy zo‘ravonlikning eng yorqin ko‘rinishidir. Oilada er yoki xotin sherigining qiziqshlari, hissiyotlari, yutuq va kamchiliklariga e’tiborsizlik bilan qarash natijasida jabrlanuvchi o‘zida ruhiy beqarorlikni his qiladi. Bu esa aybdorlik hissini vujudga keltirib, teng munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga halaqit beradi. Umuman olib qaraganda oiladagi ruhiy zo‘ravonlik asoslari ko‘pincha milliy qadriyatlar va erkak-ayol o‘rtasidagi munosabatlarda shakllangan an‘nalarga ham borib taqaladi. Bu jarayonning hozirgi kundagi katalizatori diniy blogerlarning chiqishlari bo‘lib, ular faollik bilan erkak keskin ustun bo‘ladigan oila haqidagi qarashlarini ilgari suradilar va bu erkaklar ularning asosiy auditoriyasini tashkil qiladi. Bu kabi qarama-qarshi qarashlar ruhiy zo‘ravonlikni keltirib chiqarishini kuchaytirmoqda. Chunki, avvallari ruhiy zo‘ravonlik emas, balki oilaviy munosabatlar deb ataladigan aloqalarni endilikda ayollar qabul qilmaslikni boshladi.

Ommaviy axborot vositalari va internetning rivojlanishi bu bordagi munosabatlarni yanada kengroq muhokama qilish va sog‘lom aloqalarni o‘rnatish imkoniyatlarini vujudga keltirdi.

Hozirgi kunda ruhiy zo‘ravonlikni oilada sodir etilsa uning qurbonlari asosan ayollar va bolalar bo‘ladi. Bu jarayonda asosiy namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarga turmush o‘rtog‘i va farzandlarining ustidan kulish, yaqinlari va do‘stlari bilan ko‘rishishga imkon bermaslik, har qanday holatda xotinini va bolalarni ayblash, spirtli ichimliklar va giyohvandlikka ruju qo‘yish, so‘zsiz bo‘ysunishni talab qilish, haddan ortiq rashk qilish, manipulyatsiyadir.¹ Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik o‘zidan nari qilish, e‘tiborsizlik, ajratib qo‘yish, qo‘rqitish, ekspluatatsiya va degradatsiya kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.²

Aksariyat mutaxassislar bu kabi ruhiy zo‘ravonlikning oqibatlari inson hayotida juda katta salbiy rol o‘ynashini qayd etib o‘tadilar. Jumladan, ruhiy jarohatlar natijasida insonda ijtimoiy munosabatlarda ishonchsizlik, qo‘rquv, himoyalanih istagi, boshqalardan o‘zini himoya qilish uchun yordam kutish kabi holatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Shu bilan birga me‘yoriy munosabatlarni o‘rnatish uchun kerak bo‘ladigan munosabatlarda sub‘yekt kabi o‘zini mutsaqil tutish holatlarining o‘rniga bitta shaxsga qattiq bog‘lanib qolish holatlari uchrashi mumkin. Ruhiy zo‘ravonlik qurbonlari kelgusidagi o‘zlaridagi ruhiy jarohat orqali oilasiga, farzandlariga va hamkasblariga ham ruhiy bezovtalik yuqtirishi mumkin. Chunki, ijtimoiy munosabatalarning ruhiy aspekti juda murakkab bo‘lib, yuksak darajada kamolotga erishgan insonlarga ruhiy jihatdan travmasi bor yoki ruhiy bezovtalikdan aziyat chekayotgan insonlarning ta’sir doirasiga tushib qolmaydi.

Ta’lim muassasalaridagi ruhiy zo‘ravonlik O‘zbekistonda ancha kam o‘rganilgan ilmiy tadqiqot mavzularidan biridir. Ruhiy zo‘ravonlikning ochiq-oydin kuzatish, baholash va aybdorga jazo berish ma’lum bir kompetensiyalarni talab qilganligi sababli har doim ham yaqqol namoyon bo‘lavermaydi. Mutaxassislarning fikricha: “omma oldida yerga urish, haqorat qilish, mazax qilish, tahdid qilish, laqab to‘qish, o‘z hohish istaklariga zid bo‘lgan ishlarni qilishga majburlash, e‘tiborsizlik, hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish va yomonlik qilish” kabi holatlarda namoyon bo‘ldi.³ Ta’lim muassasasidagi o‘quvchilarga va talabalrga nisbatan ruhiy zo‘ravonlikning sabablari turlicha. Ob‘yektiv sabablarga ijtimoiy ongda shakllangan ma’lum bir stereotiplar – ijtimoiy-iqtisodiy, kambag‘allik, milliy yoki diniy xususiyatga ega bo‘lgan qarashlar, shuningdek mahalliychilik bilan bog‘liq

¹ Чермашенцева Т.Д., Кошелева Д.В., Инкин А.А.. "Признаки психологического насилия в семье" Законность и правопорядок в современном обществе, № 17, 2014, - С. 111.

² Ўша манба. – С. 112.

³ Печеркина А.А.. "Психологические детерминанты психологического насилия в образовательной среде" Педагогическое образование в России, №. 5, 2013, - С. 123.

yondashuvlar ham ruhiy zo‘ravonliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, oliy ta‘lim muassasalarida ma‘lum bir viloyatliklarni tahqirlash uchun shakllangan an‘anaviy streotiplardan foydalanish hollari uchrab turadi. Maktablarda esa vaziyat ancha jiddiy bo‘lib asosan iqtisodiy determinantlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ya‘ni, o‘quvchilar o‘zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqib, ruhiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lishlari mumkin. Bu holatda ko‘pchincha o‘quvchilar sinfda boshqa o‘quvchilardan ajralib qolishiga olib keladi.


Sub‘yektiv holatda esa o‘quvchilarning jismoniy kamchiligi yoki o‘ziga xosligi kabi holatlar ruhiy zo‘ravonlikka asos bo‘ladi. Shu bilan birgalikda pedagogning o‘quv jarayonini tashkil etishdagi uquvsizligi, ma‘lum bir o‘quvchilarda haddan ortiq e‘tibor berish ham bu kabi holatlarga olib keladi. Ruhiy zo‘ravonlikning eng ko‘p tarqalgan usulini ommaviy madaniyatda a‘lo bahoga o‘qiydigan, ko‘zoynak taqqan landavur o‘g‘il bola timsolida ko‘rish mumkin.⁴ Bu kabi holatlarning sabablaridan biri o‘quvchiga nisbatan haddan ortiq e‘tibor berish, o‘quvchilarning bilimlari va qadriyatlari o‘rtasidagi farq bilan bog‘liqdir.

Ta‘lim muhitida ruhiy zo‘ravonlik masalalari axborotlashuvning kuchayishi, kuzatuv kameralarining o‘rnatilishi ruhiy zo‘ravonlikni aniqlash va unga qarshi kurash imkoniyatini kengaytirdi. Umuman olib qaraganda O‘zbekistonda ta‘lim muhitini ruhiy zo‘ravonliklardan holi qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud. G‘arb davlatlarida bulling deb ataladigan ruhiy zo‘ravonlik haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda gapirila boshlandi. Bu borada yetakchi siyosatchilar o‘z pozitsiyalarini bayon qilmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, sog‘liqni saqlash vazirligi va Yunisef hamkorligida 2022-yilda “Maktablarda o‘smirlarning ruhiy salomatligi va ruhiy ijtimoiy farovonligi” deb nomlangan tadqiqotni e‘lon qildi. Tadqiqot o‘rtacha va o‘ta og‘ir tashvish (15,4%) va depressiya (9,8%) holatida bo‘lgan bir qator o‘quvchilarni aniqladi. Deyarli 10 o‘quvchidan 1 nafari o‘rtacha va o‘ta og‘ir depressiyadan va hatto o‘rtacha darajadan o‘ta og‘ir darajagacha tashvishlanishdan aziyat chekkan. Ular orasida ota-onalari kamida bir oy uydin tashqarida yashagan o‘quvchilar, mehnat faoliyati bilan band o‘quvchilar va qizlar ko‘proq ajralib turadi.⁵ Ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun o‘smirlarni yakkalanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda zshravonlikni oldini olish bilan bog‘liq tadbirlarni kuchaytirish kerakligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Ushbu tadqiqotda ruhiy zo‘ravonlikning eng og‘ir oqibati o‘z joniga qasd qilish bo‘yicha mamlakatimizdagi statistika keltirib o‘tilgan.

⁴ <https://youtu.be/jiKgFyxdvhI?si=3TJlkEu7MHpFVK6t> - Dizayn jamoasi - Maktab davri | Дизайн жамоаси - Мактаб даври

⁵ Maktablarda ўсмирларнинг рухий саломатлиги ва рухий ижтимоий фаровонлиги. Ўзбекистон халқ таълими вазири, Соғлиқни сақлаш вазири ва Юнисеф ҳар бир бола учун. Тошкент, 2022 й. – С. 11.



1-rasm. Har 100 ming aholiga nisbatan o‘z jiniga qasd qilish ko‘rsatkichi

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 16 yil davomida 15-19 yoshlilarning o‘z joniga qasd qilishi o‘tgan advr mobaynida ikki barobarga ko‘paygan. Bu muammoni kompleks tahlil qilish orqaligina ma’lum bir xulosalar chiqarish mumkin. Umuman olib qaraganda axborotlashuv, iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarning jadallashuvi hamda kabi ob’yektiv omillar bu kabi salbiy tendensiyalarni kuchaytirayotgan bo‘lishi mumkin.

10-19 yosh guruhidagi o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘ziga zarar yetkazish va o‘z joniga qasd qilish natijasida sodir bo‘lgan o‘lim holatlarining qariyb 74 foizini 15-19 yoshdagi o‘g‘il bolalar tashkil etgan bo‘lsa, xuddi shu yosh guruhidagi 15-19 yoshli qizlar o‘ziga zarar yetkazishni, 10-19 yosh guruhida qizlar o‘ziga zarar yetkazish va o‘z joniga qasd qilish natijasidagi ayollar o‘limi darajasining 80 foizini tashkil etadi.⁶ Bu yosh ko‘rsatkichlari ruhiy salomatlik borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish zaruratini yana bir isbotlab turibdi. Hozirgi kunda shakllanayotgan global liberal qadriyatlar ta’sirida o‘smirlarning dunyoqarashida milliy an’ana va qadriyatlar emas, G‘arb madaniyati ustuvor bo‘lmoqda. Bu esa ota-onalar va atrofdagi boshqa ijtimoiy guruhlar va sub’yektlar bilan munosabatlarning taranglashuviga o‘zaro muloqot tilining yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Umuman olib qaraganda ruhiy zo‘ravonlik masalasi O‘zbekistonda kam o‘rganilgan ilmiy muammolardan bo‘lib turibdi. Olib borilgan izlanishlar natijasida uning qator turlari mavjud ekanligi va aksariyat holatlarda jamiyat a’zolari bu haqida to‘liq tushunchaga ega emasligi ma’lum bo‘ldi.

⁶ Ўша манба. – С. 9.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чермашенцева Т.Д., Кошелева Д.В., Инкин А.А.. "Признаки психологического насилия в семье"
2. Печеркина А.А.. "Психологические детерминанты психологического насилия в образовательной среде" Педагогическое образование в России, №. 5, 2013, - С. 123.
3. <https://youtu.be/jiKgFyxdvhI?si=3TJlkEu7MHPFVK6t> - Dizayn jamoasi - Maktab davri | Дизайн жамоаси - Мактаб даври
4. Мактабларда ўсмирларнинг рухий саломатлиги ва рухий ижтимоий фаровонлиги. Ўзбекистон халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Юнисеф ҳар бир бола учун. Тошкент, 2022 й. – С. 11.